
SO'X TUMANIDAGI YOZGI BOLALAR SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHIDA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



So'x tumanidagi yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida sayyor qabul o'tkazildi

Qabul davomida muamollariga yechim topgan fuqarolar minatdorlik bildirdilar.

Fuqarolar muammolarni hal etishda sayyor qabullarning tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Odamlarning dardini eshitish, og'irini yengil qilish yurtdoshlarimizning adolatga, davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Farg'ona viloyatidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari qatorida Byuroning Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i Otabek Salmanov ham So'x tumanidagi "Bolalar oromgohi" binosida o'tkazilgan sayyor qabulda ishtirok etib, fuqarolarning Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi yuzasidan murojaatlarini tingladi.

Qabulda 12 nafar fuqarolarning murojaatlari qabul qilinib, shundan, 5 nafariga huquqiy tushuntirish berilgan bo'lsa, 4 nafar fuqarolarning murojaatlari shu yerning o'zida qanoatlantildi.

Misol uchun, So'x tumanida yashovchi fuqaro I.Alimovning uning foydasiga yer maydoni ajratish haqidagi sud qarori fuqaroning murojaatini qabul qilish jarayonida amalda ijro etildi va o'z o'rnida fuqaro I.Alimov o'z murojaati ijobiy hal etilgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shu kabi, yana 3 nafar fuqarolarning murojaatlari qanoatlantirilishi, qolganlar murojaatlar bo'yicha yuritilayotgan ijro ishlarining ijrosi nazoratga olinishi ta'minlandi.

Hududlarda sayyor qabullar davom etmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-29 18:09:16